UDK 687

IXTISOSLASHTIRILGAN UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARI UCHUN TAYYORLANAYOTGAN FORMALI KIYIMIGA TEXNOLOGIK ISHLOV BERISH

Djalolova D.F.
Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti
E-mail: djalolova@mail.ru
Tel. 94.128-24-42

Annotatsiya. Kostyum va yubka uchun mo'ljallangan kostyumbop matolarning fizik-mexanik xususiyatlarning normativ ko'rsatkichlari, kostyum va yubka detallari spetsifikatsiyasi, o'g'il bolalar uchun maktab formasi to'plami elementlarining tashqi ko'rinishi tavsifi, pidjak va shimga mo'ljallangan kostyumbop matolarning fizik-mexanik xususiyatlari ko'rsatkichlari, shim detallari spetsifikatsiyasi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Jaket, siluet, taqilma, bort, qotirma, taxlama, ilgak, vitachka, spesifikatsiya, otkos, gulfik.

Аннотация. Приведены сведения о нормативных показателях физико-механических свойств костюмных тканей, предназначенных для пошива костюмов и юбок, характеристика деталей костюмов и юбок, описание внешнего вида элементов комплекта школьной формы для мальчиков, показатели физико-механических свойств костюмных тканей, предназначенных для пошива курток и брюк, характеристика деталей брюк.

Ключевые слова: пиджак, силуэт, замок, борт, клеевой, подгиб, крючок, вытачка, спецификация, откос, гульфик.

Abstract. The article provides information on the standard indicators of the physical and mechanical properties of suit fabrics intended for sewing suits and skirts, characteristics of suit and skirt parts, description of the appearance of the elements of the school uniform for boys, indicators of the physical and mechanical properties of suit fabrics intended for sewing jackets and trousers, characteristics of trouser parts.

Key words: jacket, silhouette, zipper, lapel, adhesive, hem, hook, dart, specification, slope, fly.

Kirish

Jahonda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatlarini izchil va barqaror rivojlantirish yengil sanoat korxonalarida zamonaviy asbob-uskunalarni joriy etish, hamda mahsulotning sifatini nazorat qilish, boshqarish va yangi assortimentlarini yaratish jahon bozorida raqobatbardosh yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. "Dunyoda to'qimachilik sanoati ip-gazlamalar ishlab chiqaradigan korxonalar – 67%, kimyo tolali gazlamala ishlab

ISSN 3030-3907

chiqaradigan korxonalar – 20%, jun gazlamalar ishlab chiqaradigan korxonalar – 10%, zig‘ir tolali - 1,6%, boshqalar esa -1,4% tashkil etadi va bunda beshta hududlar, ya’ni Sharqiy va Janubiy Osiyo, MDH davlatlari, Evropa va AQSH davlatlari yetakchilik qilmoqda. To‘qimachilik dunyo bozorida tikuv mahsulotlari uchun mo‘ljallangan gazlamalarni ishlab chiqarish 120 mlrd.m^2 ni tashkil etadi” . Shu jihatdan tikuvchilik sanoatini rivojlantirish uchun ish sifati yuqori va energiya resurstejamkor texnika vositalari va texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Hozirda chet el investitsiyalarini jalb etish, yangi qo‘shma korxonalar tashkil qilish va mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish mamlakatimiz yengil sanoatini rivojlantirish imkonini bermoqda.

Dunyoda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj ishlab chiqarish texnika hamda texnologiyalarni takomillashtirish, yangilarini yaratish va ilmiy asoslarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari keng olib borilmoqda. Bu borada, yengil sanoat jarayonlari samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning ratsional parametrlarini va ilmiy asoslangan texnologiyalarni ishlab chiqish, raqobatbardosh, sifatli tayyor mahsulot assortimentlarini kengaytirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Bolalar va o‘smirlar uchun kiyimlar sifati loyihalash bosqichida shakllanadigan xususiyatlarning mutanosibligi bilan belgilanadi. Kattalar kiyimi bilan taqqoslaganda, o‘smirlar kiyimlarini loyihalash jarayoni bolaning yoshi va tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq bir qator xususiyatlarga ega [1].

Zamonaviy formali kiyimlarni yaratish bolalarga o‘quv mashg‘ulotlari bilan birga ijodiy mashg‘ulotlarni tanlashda hamda sport bilan shug‘ullanishda ko‘proq erkinlik berish imkonini yaratadi. Bolalarda sevimli mashg‘ulotlarning xilma-xilligi ularda kiyimlarning ko‘pligi va eng muhimi, garderobning turli tumanligini anglatadi. Ob-havo sharoitining o‘zgarishi bola organizmi uchun qulay termal muvozanatni saqlash buyumlar soni shuningdek, kiyim materiallari paketining qalinligiga oid bir qator talablarni belgilaydi. Bolaning intensiv o‘sishi kiyimni xarid qilish chastotasiga hamda oila byudjetiga ta’sir qiladi[2]. Shuni ta’kidlash kerakki, zamonaviy jamiyatning rivojlanishi sharoitida madaniyatni saqlash, milliy ma’naviy va tarixiy an’analarni kostyumda tiklash, mustahkamlash masalasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda.

Yetakchi o‘quv yurtlari hamda bir qator modellashtirish tashkilotlarining badiiy dizayn vositalaridan foydalanish bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlari va ishlanmalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, kiyimlarni ishlab chiqarishda eskiz yaratishdan boshlab to tayyor mahsulotni ishlab chiqarish jarayonigacha badiiy nazariy qonuniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu sababli, milliy an’analar va ijtimoiy omil asosida, shuningdek, zamonaviy moda talablari va darajasiga javob beradigan o‘smirlar formali kiyimlarini kompleks loyihalashning

ISSN 3030-3907

nazariy asoslarini ishlab chiqish respublika ta'lim muassasalarida yetarlicha asos bo'lishi mumkin va zamonaviy tikuvchilik ishlab chiqarishning dolzarb vazifasidir. O'zbekiston iqlimiy sharoitlari uchun bolalarning formali kiyimlarini loyihalash jarayonini takomillashtirish dolzarb hisoblanadi. O'smirlarning formali kiyimlarini loyihalash jarayonini takomillashtirish asosida ularning psixofiziologik shuningdek, antropologik rivojlanishlarini inobatga olib, formali kiyim materiallar paketini va kompozitsion yechimini optimallashtirish yotadi.

O'smirlar uchun kiyimlarning sifati loyihalash bosqichida shakllanadigan xususiyatlarning to'plami bilan belgilanadi. O'smirlar kiyimini loyihalash jarayoni kattalar kiyimlarini loyihalashga qaraganda o'smirning hayot faoliyatini inobatga olish bilan farq qiladi.O'smirlar kiyimlari parametrlari aniqlash, uning sanoat sharoitlariga va ishlab chiqarishga mosligini aniqlaydigan asosiy bosqich-loyihalash bosqichidir. Hozirgi vaqtda ushbu yo'nalishda bolalar kiyimlarini fiziologik-gigiyenik baholash usullari va mezonlarini ishlab chiqish, o'smirlar kiyimlarini loyihalashda konstruktiv qo'shimchalar bo'yicha tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi. Bolalar kiyimida konstruktiv qo'shimchalarning optimal qiymatlaridan foydalanish uning ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilaydi, shuningdek, asosiy hamda yordamchi materiallarning sarfini kamaytirgan holda ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishga imkon beradi.

O'rta va katta maktab yoshidagi qiz bolalar uchun jaket yarim yopishgan siluetli, markaziy bir bortli taqilmasi ikkita tugmali. Yoqa qaytarma pidjaksimon, yoqa chetiga 1,5 sm kenglikda ko`k sariq rangdagi adras matosi mag'izi bilan bezatilgan. Jaket orqa bo'lagi o'rta chokli. Jaket old bo'lagida qoplama cho'ntak berilgan. Qoplama cho'ntak yuqori qirqimidan kelib o`rta qismini torib o`tuvchi shakilli ma`lum kenglikdagi ko`k va sariq nusxadagi adras matosidan mag'iz bilan ishlov berilgan. Kostyum yengi o'tqazma, bir chokli. Kostyum astarli.

1-jadval

Kostyum va yubka uchun mo'ljallangan kostyumbop matolarning fizik-mexanik xususiyatlarning normativ ko'rsatkichlari.

№	Ko'rsatgich nomi	NX bo'yicha talablar	Haqiqiy ko'rsatkichlar
1.	Tola tarkibi, %	50 dan oshmasligi kerak(kimyo tolalar)	Paxta-60, Poliefir-40
2.	Yuza zichlik, g/m^2	200 – kam emas	232
3.	Material eni,sm	GOST 21790-05 150±2,5	150,0
4.	To'quv turi		Sarjali
5.	Mato tasmasining uzilish kuchi, N:	800 – kam emas 451 – kam emas	1000 ortiq 547

ISSN 3030-3907

	tanda bo‘yicha arqoq bo‘yicha		
6.	Namlik bilan ishlov berish(yuvish) dan keyin chiziqli o‘lchamlarining o‘zgarishi, %: tanda bo‘yicha arqoq bo‘yicha	GOST 21790-05 5,0 - kam emas 2,0 – kam emas	 + 1,5 -1,5
7.	Havo o‘tkazuvchanligi, $dm^3/(m^2s)$	50,0- kam emas	55,6
8.	Bo‘yoqqa chidamliligi, ballda quruq ishqalanishga yuvishga terga dazmollashga	“mus-kam” kam emas 4 b 4/4 b 4/4 b 4 b	Mustahkam

Texnologik talablar. Yoqalar, qoplama cho‘ntak cheti va o`rtasiga hamda yeng uchi orqa tomoniga adras matosidan mag‘izlar biriktiriladi. Yoqaga, bortlarga bir tomonlama qoplama qotirma materiallarni qo‘llab, to‘g‘ri qotirmalash usuli bilan yoqalarga ishlov beriladi.

2-jadval

Kostyum detallari spetsifikatsiyasi

№	Detallarning nomlanishi	Andozalar soni	Bichiqlar soni
Asosiy matodan			
1	Old bo‘lak	1	2
2	Orqa bulak	1	2
3	Eng ustki qismi	1	2
4	Eng ostki qismi	1	2
5	Ustki yoqa	1	2
6	Ostki yoqa	1	2
7	Qoplama cho‘ntak	1	2
Qo‘shimcha matodan			
8	Yoqa mag‘izi	1	2
9	Bort mag‘izi	1	2
10	Cho‘ntak o`rta qirqimi mag‘izi	1	2
11	Yeng uchi	1	2
Astar matodan			
12	Old bulak	1	2
13	Orqa bo‘lak	1	2
14	Eng	1	2

ISSN 3030-3907

Qotirma materialdan			
15	Yoqa qaytarmasi qotirmasi	1	1
16	Bort qotirmasi	1	2
Elimli uqa			
17	Cho‘ntak qirqimidagi elimli uqa	1	2

Yoqa qaytarmasi bilan qotirmaning ikkinchi qavat qirqimidan 0,2 sm masofada mag‘izlanadi, yuza tomoniga o‘giriladi va choklar to‘g‘rilanib, dazmollanadi. Old bo‘lakka bortlar biriktirib tikiladi, qoplama cho‘ntaklari bostirib tikiladi. Orqa bo‘lak o‘rta choki ulanadi. Old va orqa bo‘laklar yelka va yon qirqimlari biriktirib tikiladi. Ostki yoqa ulanadi, o‘ngiga ag‘dariladi va dazmollanadi. Astarga ishlov berilib, yeng bo‘laklari ulanadi, o‘ngidan dazmollanadi. Yeng o‘miziga ulanib, andazalar bo‘yicha izma va tugma joyi belgilanadi. Bortlar bo‘ylab izma yo‘rmalanadi va tugma qadaladi. Qizlar uchun yubka tizzadan pastgacha uzunlikda bo’lib, silueti trapetsiyasimon. Yubka old bo‘lagida ikkita va orqa bo`lagida ikkita qarama-qarshi taxlama berilgan, bo‘ksa chizig‘idan so‘ng ochiq taxlamalar berilgan. Yubka yon qirqimiga “chaqmoq” tasmada qadaladi [3].

Texnologik talablar. Yubkaning barcha ochiq qirqimlari yo‘rmalanilib, yubka uch bo`lakdan iborat. Birinchi bo`lak to`g`ri to`rtburchak shaklida bo`lib uzun tomoniga mag`izlik adras matosi 2sm kenglikda briktiriladi. Ikkinchi bo`lak ham to`g`ri to`rtburchak shaklida bichilib, bir nechta bir tomonga buklangan taxlama beriladi. Ikkta bo`lak yuqori qismi belbog` tasmasiga briktirib tikiladi. Belbog` tasmasining chap tomonida 4 ta tugma qadalgan o`ng tomonida esa 4ta izmadan iborat.

3-jadval

Yubka detallari spetsifikatsiyasi

№	Detallarning nomlanishi	Andozalar soni	Bichiqlar soni
1	**2**	**3**	**4**
Asosiy matodan			
1	Yubka 1- bo‘lagi	1	2
2	Yubka 2- bo‘lagi	1	2
3	Belbog` bo`lagi	1	2

4-jadval

Texnik topshiriq

Komplekt: qizlar uchun kostyum va yubka (6-8 sinflar)				
Eskiz	**Buyum nomi**	**Buyum detallari nomi**	**Rangi**	**Polotnoning xususiyatlari**

ISSN 3030-3907

	Qizlar uchun kostyum	Old bo‘lak, orqa bo‘lak, yeng, yoqa, qoplama cho‘ntak	ko‘k	Kostyumbop mato: paxta 60%,P/E 40% (barbi)
		Yoqa, qotirma		Yelimli qotirma
		Old bo‘lak, orqa bo‘lak, eng		Astar: 100% poliester
		Yoqa, bort va cho‘ntak mag‘izlari	Ko`k, sariq	Kostyumbop mato: paxta 60%,P/E 40%
		furnitura 14 mm diametrli plastmassa tugmalar	Ko`k	Plastik
		Lavsan tikuv iplari	Ko`k	
	Yubka	1- bo‘lak, 2-bo`lak belbog` bo‘lagi		Kostyumbop mato: paxta 60%,P/E 40% (barbi)
		Furnitura tugma	Ko`k	
		Lavsan tikuv iplari	Ko`k	

O‘g‘il bolalar uchun maktab formasi to‘plami elementlarining tashqi ko‘rinishi tavsifi. O‘rta va katta maktab yoshidagi o‘g‘il bolalar uchun pidjak yarimyopishgan siluetli, markaziy bir bortli taqilmasi ikkita tugmali. Yoqa qaytarma pidjaksimon, yoqa chetiga 1,5 sm kenglikda qizil rangdagi mag‘iz bilan bezatilgan bo’lib, pidjak orqa bo‘lagi o‘rta choklidir. Pidjak old bo‘lagida va chap tomonning yuqori qismida qoplama cho‘ntaklar berilgan. Qoplama cho‘ntak yuqori qirqimiga 1,5 sm kenglikdagi qizil rangdagi mag‘iz bilan ishlov berilgan. Pidjak yengi o‘tqazma, uzun va ikki chokli. Pidjak astarli.

ISSN 3030-3907

5-jadval

Pidjak va shim mo‘ljallangan kostyumbop matolarning fizik-mexanik xususiyatlar ko‘rsatkichlari.

№	Ko‘rsatgich nomi	NX bo‘yicha talablar	Haqiqiy ko‘rsatkichlar
1.	Tola tarkibi, %	50 dan oshmasligi kerak(kimyo tolalar)	Paxta-60, Poliefir-40
2.	Yuza zichlik, g/m^2	200 – kam emas	232
3.	Material eni,sm	GOST 21790-05 150±2,5	166,0
4.	To‘quv turi		Sarjali
5.	Mato tasmasining uzilish kuchi, N: tanda bo‘yicha arqoq bo‘yicha	 800 – kam emas 451 – kam emas	 1000 ortiq 547
6.	Namlik bilan ishlov berish(yuvish) dan keyin chiziqli o‘lchamlarining o‘zgarishi, %: tanda bo‘yicha arqoq bo‘yicha	GOST 21790-05 5,0 - kam emas 2,0 – kam emas	 + 1,5 -1,5
7.	Havo o‘tkazuvchanligi, dm^3/(m^{2}s)	50,0- kam emas	55,6
8.	Bo‘yoqqa chidamliligi, ballda quruq ishqalanishga yuvishga terga dazmollashga	“mustahkam” kam emas 4 b 4/4 b 4/4 b 4 b	Mustahkam

6-jadval

Pidjak detallari spetsifikatsiyasi

№	Detallarning nomlanishi	Andozalar soni	Bichiqlar soni
1	**2**	**3**	**4**
Asosiy matodan			
1	Old bo‘lak	1	2
2	Orqa bulak	1	2
3	Eng ustki qismi	1	2
4	Eng ostki qismi	1	2
5	Ustki yoqa	1	1
6	Ostki yoqa	1	1

ISSN 3030-3907

7	Qoplama cho‘ntak	1	2
8	Ko‘krak qismidagi qoplama cho‘ntak	1	1
	Qo‘shimcha matodan		
8	Yoqa mag‘izi	1	2
9	Bort mag‘izi	1	2
10	Cho‘ntak yuqori qirqimi mag‘izi	1	2
	Astar matodan		
11	Old bulak	1	2
12	Orqa bo‘lak	1	2
13	Eng	1	2
	Qotirma materialdan		
14	Yoqa qaytarmasi qotirmasi	1	1
15	Bort qotirmasi	1	2
	Elimli uqa		
16	Cho‘ntak qirqimda elimli uqa	1	2

Texnologik talablar. Yoqalar, qoplama cho‘ntak chetiga adras matosidan 1sm kenglikdagi mag‘izlar biriktiriladi. Yoqaga, bortlarga bir tomonlama qoplama qotirma materiallarni qo‘llab, to‘g‘ri qotirmalash usuli bilan yoqalarga ishlov beriladi.Yoqa qaytarmasi bilan qotirmaning ikkinchi qavat qirqimidan 0,2 sm masofada mag‘izlanadi, yuza tomoniga o‘giriladi va choklar to‘g‘rilanib, dazmollanadi. Old bo‘lakka bortlar biriktirib tikiladi. Old bo‘lakka qoplama cho‘ntaklar bostirib tikiladi. Orqa bulak o‘rta choki ulanadi. Old va orqa bo‘laklar elka va yon qirqimlari biriktirib tikiladi. Ostki yoqa ulanadi, o‘ngiga ag‘dariladi va dazmollanadi. Astarga ishlov beridadi. Eng bo‘laklari ulanadi, o‘ngidan dazmollanadi. Eng o‘miziga ulanadi. Yelka chokiga elka yostiqchalari tikiladi. Astar ulanadi, yon qirqimidan 15 sm ochiq qo‘yibiladi. O‘ngiga ag‘dariladi va ochiq joyi bostirib tikiladi. Andazalar bo‘yicha izma va tugma joyi belgilanadi. Bortlar bo‘ylab izma yo‘rmalanadi va tugma qadaladi [4].

O‘g‘il bolalar uchun shim uzun, old bo‘lagida taxlamalar qo‘yilgan bo‘lib (har bir bo‘lakda bittadan) va chok davomida yon cho‘ntaklarga ishlov berilgan. Shim orqa bo‘laklari vitochkali (har bir orqa bo‘lakda bittadan), o‘ng orqa bo‘lakda taqilmasi ichki osma ilgakli va tugmali, bitta ramkali qirqma cho‘ntakka ishlov berilgan. Shim ulama belbog‘li, 7 ta kamar tutgichlarga ishlov berilgan: ikkitasi old bo‘lak taxlamasi ustida, ikkitasi yon choklar ustida, ikkita kamar tutkichlar yon chok tomonidan orqa bo‘lak vitachkasida va bittasi orqa bo‘lakning o‘rta chok ustida joylashgan. Shim taqilmasi tugmalar belbog‘da, hamda gulfik va oskosda “chaqmoq tasma” bilan taqiladi. Shimning barcha biriktiruvchi choklari 1,0 sm

ISSN 3030-3907

kenglikda bir vaqtning o‘zida yoki ketma-ket yo‘rmalash bilan bajariladi. Shimning yon odim choklari orqa bo‘laklar bo‘ylab bostiriladi.

7-jadval


Shim detallari spetsifikatsiyasi

№	Detallarning nomlanishi	Andozalar soni	Bichiqlar soni
1	2	3	4
Asosiy matodan			
1	Shimning old bo‘lagi	1	2
2	Shimning orqa bo‘lagi	1	2
3	Belbog‘	1	2
4	Gulfik	1	1
5	Otkos	1	1
6	Shimning yon cho‘ntak ko‘rinmasi	1	2
7	Orqa bo‘lak cho‘ntak ko‘rinmasi	1	2
8	Kamar tutgich (30 sm uzunlikda)	1	1
9	Shimning old bo‘lagi	1	2
Qotirma matodan			
10	Shim belbog‘i qotirmasi	1	2
11	YOn cho‘ntak og‘ziga qotirma	1	2
12	Orqa bo‘lak cho‘ntak qirqimi ostiga bo‘ylama	1	1
Cho‘ntakbop matodan			
13	Shimning yon cho‘ntak xaltasi	1	2
14	Shimning orqa bo‘lak cho‘ntak xaltachasi	1	1
15	Tugma joyi (otkos)	1	1

Shim belbog‘i uchlari yopiq qirqimli buklov choki bilan mustahkamlanadi.Shim kamar tutgichlar uzunligi 5,0 sm kamar tutgichlarning yuqori qismi shim belbog‘ining yuqorisi va yon cho‘ntak og‘zi bo‘ylab maxsus mashinada mahkamlanadi [5]. Shimning orqa bo‘lak va yon cho‘ntaklar mag‘zi ichki tomondan yo‘rmalanadi va cho‘ntak astariga bostiriladi. Yon cho‘ntaklar cheti bo‘ylab bezak bahyaqator kengligi 0,5 sm. Shim pochasi buklovi kengligi 4,0 sm.

ISSN 3030-3907

8-jadval

Komplekt: o‘g‘il bolalar uchun pidjak va shim (6-8 sinflar)				
Eskiz	Detallar nomi	Buyum detallar nomi	Panton rang bo‘yicha	Polotnoning xususiyatlari
	O‘g‘il bolalar uchun pidjak	Old bo‘lak, orqa bo‘lak, yeng, yoqa, qoplama cho‘ntak	To‘q ko‘k	Kostyumbop mato: paxta 60%,P/E 40%
		Yoqa, qotirma		Yelimli qotirma
		Old bo‘lak, orqa bo‘lak, yeng		Astar: 100% poliester
		Yoqa, bort va cho‘ntak mag‘izlari	Ko`k va sariq	Kostyumbop mato: paxta 60%,P/E 40%
		furnitura 14 mm diametrli plastmassa tugmalar	Ko`k	Plastik
		Lavsan tikuv iplari	Ko`k	
	Shim	Old bo‘lak, orqa bo‘lak, belbog‘, kamar tutgichlar, ko‘rinmas mag‘iz		Kostyumbop mato: paxta 60%,P/E 40%
		Old bo‘lak		Astar: 100% poliester
		Cho‘ntak xaltasi		Cho‘ntak xaltasi: 100% paxta
		“chaqmoq” tasma	Ko`k	
		14 mm diamtrli plastmassa tugmalar	Ko`k	Plastic

Shimning orqa bo‘lak o‘rta chokiga 2,5-3,5 sm qo‘shimcha beriladi. O‘tirish balandligi qirqimining chetigacha 2,5-3,5 sm qo‘shimcha belbog‘ korsaj tasmasi bilan birlashtiriladi, so‘ng bantli taxlama qilib kirishtiriladi va belbog‘ning yuza tomonidan mahkamlovchi chok bilan mahkamlanadi [6].

ISSN 3030-3907

Xulosa qilib aytish joizki, xalq iste'mol tovarlari uchun turli predmetlari yoki qurilmalar tizimini loyihalashda, estetik qiymat, ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt, material sarfi, texnik imkoniyatlar, iste'molchi uchun zarur bo'lgan foydali mahsulotlarni olish kabi bir qator shartlarni ta'minlash kerak. Kiyimni loyihalash muammolarini tahlil qilishning eng istiqbolli shakli - bu loyihalanayotgan ob'ektning estetik hamda ijtimoiy ahamiyatli xususiyatlari va funksiyalarini shakllantirishning umumiy qonuniyatlarini aniqlaydigan tizimli-sinflash usuli hisoblanadi. O'smirlar kiyimlarini yaratish sohasidagi mavjud ishlanmalarni tahlil qilish natijasida kiyimlarni loyihalashda tizimli yondashuv, bu ta'lim muassasalaridagi o'quvchilar uchun formali kiyimlarga ko'p tomonlama talablarni, bunday formali kiyimlarni yaratish sohasidagi ma'lumotlarni tizimlashtirish hamda qayta ishlashga imkon beradi, degan xulosaga kelish va uning optimal variantini tavsiya etishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.X. Saidova, D.F. Djalolova. Individual Embodiment of Objects in Fashion Design. Journal Miasto Przyszłości, 2023. P 218-220.
2. С.А.Гончарова. "Развитие приёмов морфологической трансформ при проектировании одежды для детей" // Дисс.канд.техн.наук. М., 2001. - 123 с.
3. D.D.Fattoxovna. Kiyim konstruksiyasi geometrik muammolarini yechishda evristik modellashtirish. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. 2022. 267-270 б.
4. Джалолова Д.Ф., Жалилова Р.Ж. Методы творчества, применяемые при проектирование одежды. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH. Innovative Academy Research Support Center. 2022.
5. Джалолова Д.Ф., Жалилова Р.Ж. Теоретические основы формы студентов специализированной средней школы. Международная научная конференция, посвященная 135-летию со дня рождения профессора В.Е.Зотикова. Сборник научных трудов. М., 2022 г.
6. Djalolova D.F., Jalilova R.J. Theoretical basis of the form of students of the specialized secondary school. Ta'lim va rivojlanish tahlili. Onlayn ilmiy jurnal. 2021.

ISSN 3030-3907